

9.	Taqrizchilar: U. Muhibova– TDShU “Hind filologiyasi” kafedrası professori, filologiya fanlari doktori; A. Tilavov – A. Navoiy nomidagi Til va adabiyot universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, (turdosh OTM).
----	--

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

U. Sh. Rixsiyeva

2020 yil “28” 08



“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi

2020 yil “29” 08

Ro‘yxatga olindi: № MD-5A120101/2.02

2020 yil “29” 08

MUTAXASSISLIKKA OID MAXSUS ADABIYOT TAHLILI (FORS)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000 – Gumanitar soha
Mutaxassislik:	5A120101 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari)

Toshkent – 2020



	2. Turdiyeva O. Hozirgi zamon Eron hikoyanavisligi. Toshkent, 2015. 3. Ibrohim G'afurov. Oltin qoziq. Toshkent, 2017/ Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11. 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b 4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b. 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz. Axborot manbalari 6. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 7. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 8. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020__ yil "<u>29</u>" <u>08</u>__ dagi <u>4</u>__ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020__ yil "<u>29</u>" <u>08</u>__ dagi <u>452</u>__ -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Turdiyeva O. – ToshDShU "Xorijiy sharq mamlakatlari adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi.

	6. Badiiy asarni strukturual tahlil qilish 7. Badiiy asarni psixologik tahlil qilish 8. Adabiy tanqid – adabiy ijod Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Mutaxassislikka oid adabiy asarlarda tahlil va talqin tushunchalarini bilish, talqin jarayonida falsafa, psixologiya va sotsiologiya fanlari yutuqlarini tadbiq eta olish, badiiy asar tahlilida ob'ektiv va sub'ektiv jihatlarini ajrata olish haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • Ilmiy yechimlar bo'yicha xulosa va tavsiyalarni shakllantira olish, badiiy adabiyotning ijtimoiy vazifasini aniqlay olish, asarning diqqatga loyiq jihatlarini ko'rsata olish, muallif tasvirlagan badiiy manzara va kitobxon idrok etgan badiiy manzarani prognoz qilish bo'yicha <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • talaba adabiy asardan o'zi yashayotgan davrga muvofiq xulosa chiqarish; adiblar ijodida inson ruhiyati kamolini ko'rsata olish; badiiy asardan xulosa chiqarish, to'g'ri tadqiq qilish tahlilchining saviyasi, dunyoqarashi va boshqa omillar bilan bog'liqligi to'g'risida aniq <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • amaliy mashg'ulotlar; • interfaol keys-stadilar; • mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar tayyorlash; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1.Dilmurod Qur'onov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, 2018.

Fan/modul kodi 5AMNM125		O'quv yili 2020-2021	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4-4-2	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4-4-2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili	150		150	300
2.	I. Fanning mazmuni				
Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda asl manbalar bilan ishlash, asarning mohiyatini anglashni o'rgatish, asar talqini va tahlili, tahlil tayanadigan tamoyillarni, tahlil jarayonida estetik asoslar ustuvorligini, tahlil yo'nalish va bosqichlarini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga fors tilida yaratilgan adabiyotlar ustida ishlash jihatlarini tushunib yetish, matnni tushunish, fors badiiy matnlarining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, muallif obrazini idrok etish, muallifni tushunish, adabiy asarning butun qirralarini anglab yetishni o'rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Adabiyotshunoslikda “tahlil” va “talqin” yoxud “analiz” va “interpretatsiya” istilohlari Adabiy asarning mazmun-mohiyatini idrok etish, uni yaxlit estetik hodisa sifatida o'rganish, o'ziga xosligini ochib berish, qimmatini belgilash, “analiz” terminining sinonimi sifatida. 2-mavzu. Badiiy asarni tushunish jarayonida obyektiv va subyektiv ibtido Badiiy asarni tushunish jarayonida obyektiv va subyektiv ibtido. Badiiy asarni talqin qilishda oddiy o'quvchi va adabiyotshunos tahlili, badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish va uqish. 3-mavzu. Germenevtika – tushunish san'ati haqidagi ta'limot Germenevtika – adabiy talqin ta'limoti, talqin nazariyasi hamda adabiy matnlarni o'rganish metodi. Badiiy matnni tushunish va tushuntirish metodologiyasi.					

4-mavzu. Kontekstual va immanent tahlil

Badiiy asarni uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o'rganish, asarga alohida mavjudlik sifatida qarabichki aloqalarini o'rganish.

5-mavzu. Badiiy asarni tahlil qilish metodlari. Biografik metod

Ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metodning ahamiyati. Ijodkor yashagan muhit, shaxsiy qiziqishlari va ilhom faktorlari, ijodkor laboratoriyasi

6-mavzu. Psixologik va psixoanalitik tahlil metodlari

Yozuvchining emotsiyalariga, ijodning psixologik jihatlariga, adibning ruhiy-ma'naviy dunyosi hamda ijod jarayonidagi psixologik holatlarga e'tibor. San'atda insonning ruhiy olami, his-tuyg'ulari in'ikosi

7-mavzu. Ijodiy-genetik metod

Ijodiy-genetik metodning biografik metod bilan aloqasi, badiiy asarning ijodiy tarixini o'rganish, hayot materialining badiiy obrazga aylanish jarayoni, badiiy matnning sayqallanish yo'li

8-mavzu. Sotsiologik tahlil metodi

"Irq, muhit va vaqt" tushunchalari, sotsiologik metod tamoyillari: ijtimoiy muhit, madaniy muhit, adabiy maktab, ijodkor, badiiy asar. Vulgar sotsiolizm tushunchasi

9-mavzu. Tarixiy-madaniy tahlil metodi

Asarni milliy-madaniy an'analar, shuningdek asarni davr adabiy-madaniy kontekstida o'rganish, badiiy xususiyatlarning shu kontekstda namoyon bo'lishi.

10-mavzu. Qiyosiy metod

Badiiy asarni boshqa asar yoki asarlar bilan qiyosan tahlil qilish, konkret asarni o'tmishda yoki u bilan bir paytda, boshqa milliy adabiyotda yoki o'zi mansub bo'lgan adabiyotda yaratilgan asar bilan qiyosan tadqiq etish.

11-mavzu. Struktural, stilistik va semiotik metodlar

Immanent tahlil metodlari: struktural, stilistik va semiotik metodlar, badiiy obrazlardagi ma'no qirralarini ochib berish, asar qismlarining butun tarkibdagi o'rnini, vazifalarini, ularning o'zaro aloqalarini tadqiq etish.

12-mavzu. Sistem-butun tahlil, kompleks tahlil

Adabiy asarni har jihatdan to'la tadqiq etishni ko'zda tutib, badiiy matnning lingvistik tahlili, uslubiy tahlili, "filologik tahlil" tushunchalari qamrovi

13-mavzu. Adabiyotshunoslik tahlilining dastur-sxemasi

Asar yozilgan davr va sharoit, asarning yozilish tarixi, asarning

intertekstual aloqalari, adabiy turga mansubligi, janri, asarning g'oyaviy-badiiy –tematik asosi, kompozitsion qurilishi, yetakchi pafos, asar badiiy konsepsiyasi.

14-mavzu. Raviy va rivoya usullari

Epik asarlardagi rivoya subyekti, voqealarni hikoya qilayotgan, ular kechayotgan makon va zamon, ularda ishtirok etayotgan personajlarga oid tafsilotlarni yetkazish.

15-mavzu. Syujet motivlari

Tashqi harakat dinamikasiga asoslangan syujetlar, ichki harakat dinamikasiga asoslangan syujetlar, konsentrim syujet, xronikali syujet, ekspozitsiya syujetning boshlanish qismi sifatida.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Roziya Tujjor ijodi
2. R.Tujjorning "Sariqlarning to'kilishi va yashillarning o'sishi" hikoyasi tahlili
3. Vajihe Somoniyning "Oxirgi bekat" hikoyasi taahlili
4. Vajihe Somoniyning "Yomg'ir ostida" hikoyasi tahlili
5. Roziya Tujjor modernist yozuvchi sifatida
6. "Ham olma, ham yulduz" hikoyalar to'plamidagi hikoyalar tahlili
7. Amuzoda Xaliliy ijodi
8. XX asr Eron adiblari ijodi
9. Eron-Iroq urushi mavzusida yaratilgan hikoyalar tahlili
10. Hozirgi zamon o'zbek adiblari va Eron adiblari ijodini qiyosiy tahlili
11. "Nargislar" hikoyasi tahlili
12. "Qarag'ayzorlardan narida" hikoyasi tahlili
13. Eron inqilobi va Eron-Iroq urushi mavzusidagi hikoyalar tahlili
14. Muhammad Rizo Sarshor, Muhammad Rizo Bayramiy, Firuz Zanuzi Jaloliylar ijodi
15. Farhod Hasanzoda hikoyalari tahlili

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fors adabiy tanqidchiligida muammoli masalalar
2. Ijodkor-kitobxon munosabatlarini talqin qilish
3. Adabiy-tanqidiy maqolalar tahlili
4. Zamonaviy ijodkor asarlari tili xususiyatlari
5. Badiiy asarni biografik tahlil qilish